

## FARG'ONA VILOYATI NOMODDIY MADANIY ME'ROSLAR TARIXI.

**Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi*

*Farg'ona akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Farg'ona viloyati nomoddiy madaniy me'roslar o'rganilishi tarixi, bu sohada qanday ishlar olib borilgani, nomoddiy madaniy meroslarni jamiyat hayotidagi o'rni haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'z:** *“Ijtimoiy-madaniy faoliyat”, “nomoddiy madaniy meros”, “SHashmaqom”, “Cho'l yo'li”.*

Bugungi kunda jamoatchilikda keng foydalanilayotgan “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” va “nomoddiy madaniy meros” iboralari iste'molga kirib kelganiga uzoq vaqt bo'lgani yo'q. Ushbu yangi iboralar hozirgi kunda bir-birini qaytaruvchi sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi iboralar sifatida qo'llanilib, turli o'quv, ilmiy adabiyotlar va vaqtli matbuot satrlarida alohida ma'nolarni anglatishi tabiiy holga aylanib qoldi. “Nomoddiy madaniy meros” iborasi esa nisbatan kechroq foydalanilayotganligidan ko'pchilik tomonidan tushunilishi biroz qiyinroq kechayotganligini bois ushbu iboraning jahon leksikoniga kirib kelish tarixi to'g'risida biroz to'xtalib o'tamiz.

YUNESKO tomonidan 2003 yil 17 oktyabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” to'g'risidagi Konventsiya, 2005 yil 20 oktyabrda esa “Madaniy ifoda shakllarining turfa-xilligini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash” to'g'risida Konventsiyaning qabul qilinishi ushbu iboraning to'laqonli iste'molga kirib kelish jarayonini yakunladi.

Aslida, nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YuNESKOning 1989 yildagi “An'anaviy madaniyat va folklorini muhofaza qilish” bo'yicha Tavsiyalaridan boshlangan edi.

1997-98 yillarda YUNESKO tomonidan “Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e'lon qilish” Dasturi ham ma'qullandi va bu orqali dunyo xalqlari tomonidan saqlab kelinayotgan nomoddiy madaniy meros durdonalarining ro'yxatini tuzish va e'lon qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu ro'yxatga O'zbekistondan birinchilardan bo'lib 2001 yilda “Boysun madaniy muhiti” va 2003 yilda “SHashmaqom” kiritilganligini yaxshi bilamiz.

Buning natijasida YuNESKO Bosh Konferentsiyasining 2001 yilda bo'lib o'tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o'tovchi Konventsiya yaratish rejalashtirildi. SHunday qilib, YuNESKO Bosh Konferentsiyasining 2003 yil 17 oktyabrdagi 32-sessiyada “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konventsiyasi qabul qilindi.

Nomoddiy madaniy meros quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

- 1) o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til – nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;
- 2) ijro san'atida;
- 3) jamiyatning urf-odatlarini, marosimlarini, bayramlarini;

4) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi;

5) an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.

Mazkur Konventsiyaning O'zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo'yicha harakat 2005 yildan boshlangan edi. Konventsiya har tomonlama o'rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning oqibatida 2007 yil dekabr oyida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Konventsiyasi ratifikatsiya qilindi. Farg'ona viloyati bo'yicha ham nomoddiy madaniy me'roslarni o'rganilish

tarixi ham ushbu konvensiyalar asosida boyib bormoqda. Markaziy Osiyoning durdonasi va qadimgi madaniyat beshiklaridan biri hisoblangan Farg'ona vodiysi Oloy Pomir tog'lari etagida joylashgan. Qadimgi madaniy obidalarga ega Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan kabi shaharlari va Xonobod, Ko'ksaroy, Rezaksoy, So'x, Shohimardon, Chodak kabi tog' vodiylari tufayli Ittifoq turistik zanjirining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu hudud o'zining qulay geografik joylashuvi va boy madaniy muhitga ega ekanligi bilan ham

etnoturizm va nomoddiy madaniy me'roslarning asosiy o'chog'i hisoblanib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanishi nomoddiy madaniy me'roslarning rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib yangi bosqichga olib chiqmoqda. YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqot yo'li" loyihasi doirasida 1991yil 17 apreldan to 18 iyunga qadar "Cho'l yo'li" ekspeditsiyasi davomida Farg'ona vodiysidagi o'zbek, qirg'iz va tojiklar madaniyatining o'rganilishi ichki va tashqi turizmni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib bizning nomoddiy madaniy me'roslarimiz bilan tanishishga ham qulay sharoit yaratib bermoqda. Qadimgi madaniy obidalarga ega Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan kabi shaharlari va Xonobod, Ko'ksaroy, Rezaksoy, So'x, Shohimardon, Chodak kabi tog' vodiylari tufayli Ittifoq turistik zanjirining ajralmas qismiga aylandi va

nomoddiy madaniy me'roslarni etnoturizmning asosiy qismiga aylantirishda juda katta rol o'ynamoqda .

Avvalo nomoddiy yoki madaniy me'ros obektlarini himoya qilish ularni kelajak avlodga o'z holidan yetkazib berish uchun insonning tafakkuri, bilimi va jamiyatdagi madaniyati ham yetarki darajada bo'lishi lozim. Yuzaki qaralganda, kundalik hayotda "madaniyat" so'zidan insonning faoliyat tarzini va jamiyatning qay darajada rivojlanganligini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida foydalaniladigandek tuyuladi. Lekin madaniyat so'zining mazmun-mohiyatiga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko'plab qarashlar, nazariyalar va g'oyalarga, tushuncha va tasavvurlarga nisbatan qo'llanilishini ham anglab yetamiz. Mana shu tariqa insonning kamol topib ulg'ayishi va jamiyatda o'z o'rnini

topib borishida madaniyatning o'rnini juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Nomoddiy madaniy me'roslar tarixi birinchi o'rinda bir davlat vakillarining boshqa davlatga sayohati davomida, insonlarning milatlararo va diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida ham o'zaro boyib boradi. Bu borada O'rta Osiyo renessansida ijod qilgan buyyuk mutaffakkirlarimiz fikri ham o'z tasdig'ini topmoqda. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning

aytgan fikrlarini buning tasdig'i sifatida misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning moddiy madaniyati, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonining barcha sohaları va ulam ing natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyat kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, yuqori darajadagi farovonlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarini yaratish jarayonidir. Ma'naviy madaniyat bu ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini vujudga keltirish sohalaridir. Ma'naviy madaniyat haqida fikr yuritishdan avval, uning jamiyat ma'naviy hayoti tushunchasidan farqini aniqlab olish zarur. Jamiyatning ma'naviy hayoti tushunchasi kishilar, jamoa, elat, millat, sinflar hayoti

ma'naviy jarayonlarini xarakterlovchi umumiy tushuncha hisoblanadi. Bizningcha, ma'naviy madaniyat muayyan jamiyatning mafkura sohasi, ijtimoiy psixologiya, axloq, san'at, diniy e'tiqodlar kabi tomonlarini tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat tushunchasi tarixiy jihatdan yo'lga qo'yilgan ma'naviy boyliklari ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol (foydalanish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat ijtimoiy ong shakllarining u yoki buyig'indisi emas, balki muayyan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar, tushunchalar va boshqalarni vujudga keltiruvchi ijodiy faoliyatdir. Hozirgi zamon madaniyatshunoslaridan V.M. Mejujev, S.N. Artanovskiy, A.I. Arnoldov, E.A. Baller, E.V. Sokolov, M. Xayrullayev,

S. Shermuham edov, U Q oraboyev, A. Erkayev, K. Xonnazarov, A. Eshonqulov, M. Abduliayev va boshqalar ko'rsatib o'tishganidek, ma'naviy madaniyat bu - ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, unga mos bo'lgan munosabatlarni birlashtiruvchi kishilar hayotiy faoliyatining ijodiy mazmunidir. Ma'naviy qadriyatlar o'zida ko'proq axloqiy me'yorlarni birlashtirib, kishilarning axloqiy xatti-harakatlarini nazoratostiga oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodov, A. Madaminov, G'. Akramov G'ofur G'ulom nomidagi Farg'ona oblast adabiyot muzeyi yo'l ko'rsatkich. – Toshkent: O'zbekiston, 1983. – 120 b.
2. Kolbinsenov D. P. So'lim oromgohlar bo'ylab – Toshkent: O'zbekiston, 1974. – 110 b.
3. Бернадский Г. М. Маршруты Ферганской долины. - М.: "Физкультура и спорт", 1972. – 120 с.
4. И. А. Верба С. М Голитсин, В. М. Куликов, Е. Г. Рябов. Мактабда туризм. –Ташкент: Ў.Итувчи, 1990.– 108 с.
5. Абдумаликов Р., Холдоров Т. Туризм. – Тошкент:, Ў.Итувчи, 1988. – Б.23.
6. Saidov A. O'zbekistonda turizm: istiqbol va muammolar... – B. 139.
7. Abdullaev Yo. Spravitelnyy analiz effiktovnosti regionalnoy ekonomiki. – Tashkent:, Mexnat, 1987. –S. 8.
8. Omonov Azamatjon Iqrorjon o'g'li. "Farg'ona viloyati nomoddiy madaniyatining etnoturizmning rivojlanishidagi o'rni" magistrlik dissertatsiyasi.